

DANTE ALIGHIERI “ILOHIY KOMEDIYA”

KIUT Samarqand filiali talabasi
Boyxurozova Ozoda Ulug'bek qizi
ozodaboyxurozova99@gmail.com
Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar

Anotatsiya. E'tiboringizga xavola etilayotgan ushbu maqola buyuk italian adibi bo'lmish Dante Alighieri hayoti, ijodi va uning qalamiga mansub bo'lgan «Ilohiy komediya» dostoni tahlil qilinadi. Dantening yashab ijod etgan davri asosan o'rta asrlar oxiri va renesans (uyg'onish) davri boshlariga mos keladi. Dante o'zining ijod mahsullarida asosan sevgi, ilohiylik, falsafaviy va diniy shakllarni ko'p taraqqiy etgan. Shuningdek, Dante Alighieri o'z davrining yetuk va insoniyatni mukammalikka yetaklovchi adib deb etirof etsak mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: Dante Alighieri, Ilohiy komediya, din, sevgi, o'rta asr, renesans (uyg'onish)

Dante Alighieri italian shoiri bo'lib, 1265- yil Florensiyada dvoryanlar oilasida tavallud topgan. O'rta asrlar madaniyatining talqini « Ilohiy komediya» asari asoschisi. Uning dastlabki asari « Yangi hayot» (1292) asari sevgilisi Beatrice ga bag'ishlangan. 1290 yillar so'ngida g'velflar partiyasi ikkiga ajralishi natijasida «oqlar» vakili Dantening mol mulki musodara etiladi va Dante Florensiyani tark etib umrbod darbadarlikda hayot kechiradi.

Dante umrining davomida falsafiy ruxdagi qarashlarni ilgari suradi. «Bazm» (1308), «Monarxiya haqida» (1313), «Yer va suv haqida»(1320) asarlar yaratadi. Uning «Monarxiya haqida» gi asarida odamlarning farovonligini taminlaydigan adolat shakli mujassamlashtirilgan.

Dante ijodining sermahsul cho'qqisi – komediyadir.(1307 – 1321). Dantening mashhur asari « Ilohiy komediy» diniy shaklda yozilgan bo'lsada, unda dunyodagi insonlarning real hayot tarzi ifoda etilgan. Dante asarida buyuk shoir va donishmandlarni shu jumladan Demokrid, Ptolemy, Evklid, Gipokrat va boshqalarni tilga olgan. Asar 3 qism «Do'zax», «A'rof», « Jannat» dan iboratdir.

Dante Italian tili yaratuvchisidir. U o'z asarlarida Italian tilidan keng tarzda foydalangan. Uning «Ilohiy komediya» asarida insoniyatning turli davrlarida yashagan kishilarning diniy va falsafiy qarashlari aks etgan. Shuning uchun uni o'rta asrlar oxiri va yangi davrning buyuk shoiri deb atashadi. Dantening ijodi Italiya adabiyoti bilan cheklanmasdan butun Yevropa madaniyatiga ham ulkan tasir ko'rsatgan. Dantening asarlari ko'pgina xalq tillariga tarjima qilingan, jumladan, o'zbek adibi

Abdulla Oripov tarjimasida «Ilohiy komediya» asarining «Do'zax» qismi nashr etilgan(1978).

Xulosa: Xulosa qilib aytganda Dante Alighierining «Ilohiy komediya» asari odamlarni o'ziga jalb qilishda va ilhomlantirishda davom etayotgan ajoyib adabiyotdir. «Ilohiy komediya» o'zining boy va murakkab ramziyligi bilan o'quvchilarni gunoh , adolat tabiatlarini ko'rib chiqishga undaydi. Dantening do'zaxni jazo joyi sifatida tasvirlashi gunohlarning oqibatlarini eslatib turadi. «Ilohiy komediya» Dantening adabiyot tarixidagi buyuk meroslaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wikipedia: Dante Alighieri
2. Kh-davron.uz: Dante Ilohiy Komediya. Do'zax & Rustam Ibragimov. Dantening «Ilohiy komediya» sida timsollar talqini , 2017.
3. Ziyoz.uz: Muxammadjon Xolbekov. Dante Alighieri va uning Ilohiy komediyasi , 2018.